INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA O‘RIN-JOY OTLARI VA ULARNING ONOMASTIK BIRLIKLAR BILAN MUNOSABATI

N.T.Hilola[1]

1. Asman universiteti o’qituvchisi

Mas'ul muallif: Hilola Narziyeva Tashpulatovna, Asman universiteti o’qituvchisi.

e-mail: hilolanarziyeva87@gmail.com

Received: 10 Noyabr 2026
Accepted: 15 Noyabr 2026
Published: 20 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Hilola, N. T. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA O‘RIN-JOY OTLARI VA ULARNING ONOMASTIK BIRLIKLAR BILAN MUNOSABATI / N. T. Hilola // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 30–33.

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘rin-joy otlari tushunchasining mazmuni va chegarasi belgilanib, ularning onomastik birliklar bilan munosabati tahlil qilingan. Tilshunoslikdagi “joy otlari” “nomina loci”, “place nouns”, “пространственная лексика” kabi atamalar qiyoslanib, tub, yasama va qo‘shma so‘zlarni birgalikda qamrab oluvchi kengroq talqin asoslangan. Umumiy makon otlari hisoblangan joy, o‘rin, yer, makon - place, space, site, area kabi so’zlar maydon yadrosi sifatida ajratilib, ularning moddiy belgilardan mavhumlashuvi yoritib berilgan. Maydonga kirmaydigan va uning periferiyasida turgan tashkilot nomlari, diniy-mifologik makon nomlari, bino qismlari kabi birliklar aniqlangan. Apellyativ va onim chegarasi, onimizatsiya va deonimizatsiya jarayonlari hamda urbanonimlarda inglizcha o‘rin-joy otlarining faollashuvi ko‘rsatilgan.

Kalit so'zlar: o‘rin-joy otlari, umumiy makon otlari, leksik-semantik maydon, apellyativ, onim, toponim, urbanonim, onimizatsiya, deonimizatsiya.

МЕСТОИМЕНА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ ВЗАИМОСВЯЗЬ С ОНОМАСТИЧЕСКИМИ ЕДИНИЦАМИ

Аннотация. В статье определяются содержание и границы понятия существительных со значением места в английском и узбекском языках, анализируется их соотношение с ономастическими единицами. Сопоставляются термины “nomina loci”, “place nouns”, “пространственная лексика” и обосновывается широкое толкование, охватывающее непроизводные, производные и сложные слова. Общие пространственные имена (joy, o‘rin, yer, makon / place, space, site, area) выделяются как ядро поля, а их абстрагирование от предметных признаков проверяется на узбекском материале . Определены единицы, не входящие в поле или находящиеся на его периферии (названия учреждений, религиозно-мифологические локусы, названия частей здания). Показаны граница между апеллятивом и онимом, процессы онимизации и деонимизации, а также активизация английских имён места в урбанонимии. Предложено рабочее определение существительных со значением места.

Ключевые слова: существительные со значением места, общие пространственные имена, лексико-семантическое поле, апеллятив, оним, топоним, урбаноним, онимизация, деонимизация.

PLACE NOUNS IN ENGLISH AND UZBEK AND THEIR RELATIONSHIP WITH ONOMASTIC UNITS

Abstract. The article defines the scope of place nouns in English and Uzbek and examines their relationship with onomastic units. The terms «nomina loci», «place nouns» and «пространственная лексика» are compared, and a broad interpretation covering simple, derived and compound words is justified. General spatial nouns (joy, o‘rin, yer, makon / place, space, site, area) are identified as the core of the field, and their abstraction from material features is tested on Uzbek data using R. Huyghe’s diagnostic. Units lying outside the field or on its periphery (names of institutions, religious-mythological loci, parts of buildings) are determined. The boundary between appellatives and proper names, the processes of onymization and deonymization, and the spread of English place nouns in Tashkent urbanonyms are discussed. A working definition of place nouns is proposed.

Keywords: place nouns, general spatial nouns, lexical-semantic field, appellative, proper name, toponym, urbanonym, onymization, deonymization.

Kirish. Makon kategoriyasi inson tafakkurining asosiy o‘lchovlaridan biri bo‘lib, tilda turli vositalar orqali ifodalanadi. Ular orasida ot so‘z turkumiga mansub o‘rin-joy bildiruvchi leksemalar alohida qatlam hosil qiladi: o‘zbek tilidagi qishloq, ko‘cha, hovli, boloxona, poliz, ingliz tilidagi village, street, yard, porch, hall kabi so‘zlar xalqning tabiiy muhiti, xo‘jalik faoliyati va turmush tarzi haqidagi bilimlarni saqlaydi. Biroq bu birliklarning ikki noqardosh til doirasidagi tizimli qiyosi o‘zbek tilshunosligida maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Qiyosni boshlashdan oldin esa o‘rin-joy otlari tushunchasining hajmini aniqlash va ularni toponim, urbanonim kabi atoqli otlardan ajratish zarur bo‘ladi.

Maqolada aynan shu nazariy masala yoritiladi.

Joy ma'nosidagi otlarning so'z yasalishi D.Straijite va Y.Ganusauskayte tomonidan ingliz va litva tillari materialida qiyoslangan[1]. Fransuz tilidagi umumiy makon otlari R.Yuig monografiyasida[2], ingliz tilidagi place otining mantiqiy-semantik tuzilishi B.Bennet va P.Agarval, uning norveg tilidagi muqobillari H.Hasselgord tomonidan tahlil qilingan. Onomastik terminlar tizimi A.V.Superanskaya[3] va N.V.Podolskaya ishlarida, aholi punkti nomlari etimonlarining taraqqiyoti L.Slavova, N.Borisenko va O.Kodubovska tadqiqotida yoritilgan. Tadqiqot materiali O'zbek tilining izohli lug'ati, Oksford ingliz lug'ati va onomastik lug'atlardan olindi. Tahlilda komponent tahlili, qiyosiy-chog'ishtirma va onomastik-leksikologik usullardan foydalanildi.

O'rin-joy ma'nosidagi otlar tilshunoslikda turlicha nomlanadi. Rus tilshunosligida «пространственная лексика», «локативные существительные», «имена места» atamalari qo'llansa, ingliz tilshunosligida «place nouns», «locative nouns», «nouns of place» kabi atamalar uchraydi. Lotincha nomina loci atamasi esa ko'proq so'z yasalishi bilan bog'liq bo'lib, joy ma'nosini yasovchi affikslar yordamida hosil qilingan otlarga nisbatan ishlatiladi. Litva tilshunoslari D.Straijite va Y.Ganusauskayte ingliz va litva tillaridagi o'rin-joy otlarining so'z yasalish modellarini qiyoslab, nomina loci atamasini morfologik kategoriya sifatida talqin qilgan va ingliz tilida unga place nouns atamasi mos kelishini qayd etgan[1]. Bunday yondashuvda faqat yasama otlar tahlilga tortiladi, tub so'zlar esa chetda qoladi. O'rin-joy otlari maydonining yadrosini aynan tub so'zlar (yer, joy, uy, ko'cha, town, house, street) tashkil etgani uchun bunday cheklov maydonning yaxlit manzarasini bermaydi.Shu sababli tadqiqotda o'rin-joy otlari kengroq ma'noda tushunildi. Ularga yasalish usulidan qat'i nazar, muayyan joyni, makon bo'lagini yoki makon sifatida idrok etiladigan obyektni nomlovchi barcha turdosh otlar kiritildi. Ko'cha, hovli, qishloq kabi tub so'zlar ham, gulzor, o'tloq, mehmonxona kabi yasama va qo'shma so'zlar ham, karvonsaroy, choyxona kabi tarixan qo'shma bo'lgan birliklar ham shu guruhda ko'rib chiqiladi. Ingliz tilida ham tub so'zlar (town, hill, yard), yasama so'zlar (bakery, orphanage) va qo'shma so'zlar (marketplace, courtyard) birgalikda tahlil qilinadi.

O'rin-joy otlari maydonining markazida eng umumiy ma'noli birliklar joylashadi. Fransuz tilshunosi R.Yuig fransuz tilidagi lieu, endroit, place, espace, zone kabi otlarni «umumiy makon otlari» (noms généraux d'espace) deb atab, ularni maxsus monografiyada tadqiq etgan[2]. Muallifning fikricha, bu otlar yuqori darajadagi umumiylik va tasviriy belgilarning kamligi bilan ajralib turadi, ularning ma'nosi esa turli shakldagi joylashuv munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. U bu xususiyatni oddiy sinov orqali ko'rsatadi: maison (uy) otini «g'ishtdan» kabi moddiy aniqlovchi bilan qo'llash mumkin bo'lsa, lieu (joy) oti bilan bunday birikma tuzilmaydi. Shu sinovni o'zbek tiliga tatbiq etsak, «g'ishtdan qurilgan uy» tabiiy, «g'ishtdan qurilgan joy» esa g'ayritabiiy eshitiladi. O'zbek tilidagi joy, o'rin, yer, makon, ingliz tilidagi place, space, site, area so'zlari ham umumiy makon otlari sifatida maydonning markazini egallaydi, uy, ko'cha, house, street kabi otlar esa aniq predmet-makonni nomlab, undan bir pog'ona quyida turadi.

Umumiy makon otlarining o'zbek tilidagi etimologik tarkibi ham diqqatni tortadi: yer va o'rin so'zlari turkiy qatlamga, joy so'zi forsiy qatlamga, makon so'zi esa arabiy qatlamga mansub hisoblanadi. Ingliz tilida ham shunga o'xshash manzara kuzatiladi: place so'zi qadimgi fransuz tili orqali lotincha platea, ya'ni «keng ko'cha, maydon» so'ziga borib taqaladi, space va site so'zlari ham lotin tilidan fransuz tili vositasida kirib kelgan, area so'zi esa bevosita lotin tilidan o'zlashgan. Ikki tilning bu jihatdan o'xshashligi bizni maydonni etimologik qatlamlar bo'yicha tahlil qilish zarurligiga ishontirdi.

Ingliz tilidagi umumiy makon otlarini B.Bennet va P.Agarval mantiqiy-semantik jihatdan tahlil qilgan. Tadqiqotchilar joy tushunchasi bilan bog'liq ifodalarni to'rt turga ajratadi: joyga o'xshash obyektlarni bildiruvchi sanaladigan otlar, bunday obyektlarning atoqli nomlari, joylashuv belgisini ifodalovchi birikmalar va aniq tavsifiy ifodalar. Bu tasnifda turdosh otlar bilan atoqli otlar mantiqan alohida turlarga ajratilgani apellyativ va onim chegarasini faqat lingvistik emas, mantiqiy-semantik jihatdan ham asoslashga imkon berdi.Norvegiyalik tilshunos H.Hasselgord ingliz tilidagi place oti bilan norveg tilidagi plass va sted otlarini parallel korpus asosida qiyoslagan. Uning xulosasiga ko'ra, ingliz tilidagi place ma'no jihatdan kengroq bo'lib, norveg tilidagi ikki otning har biri bilan qisman mos keladi, ayrim kontekstlarda esa norveg tilidagi otlar ingliz tilidagi room, space kabi otlarga yoki -where elementli ravishlarga to'g'ri keladi. Demak, hatto eng umumiy makon otlari ham ikki tilda bir xil hajmda mos kelmaydi. O'zbek tilidagi joy oti ham ba'zan place, ba'zan room yoki space, ba'zan esa seat (o'tiradigan joy) so'zi bilan tarjima qilinadi.

O'rin-joy otlarini boshqa leksik guruhlardan ajratishda grammatik belgilar ham yordam beradi. O'zbek tilida o'rin-joy otlari, ayniqsa, shaharda, qishloqqa, ko'chadan kabi o'rin-payt, jo'nalish va chiqish kelishigi shakllarida faol qo'llanadi. Ingliz tilida esa joylashuv munosabati in the city, at home, on the street kabi birikmalarda in, at, on predloglari orqali ifodalanadi. Shu sababli o'rin-joy otlarining semantik tahlilini ularning grammatik qurshovidan ajratmasdan olib borish maqsadga muvofiq deb topildi.

O'rin-joy otlarining ma'no tarkibida bir qator farqlovchi belgilar ajratildi. Ular orasida makonning tabiiy yoki inson tomonidan yaratilganligi (daryo – ariq, river – canal), hajmi (qishloq – shahar, hamlet – village – town – city), chegaralanganligi (hovli, yard, courtyard), vazifasi (bozor, choyxona, market, pub) va ijtimoiy mansubligi (mahalla, neighbourhood) asosiy o'rin tutadi. Ingliz tilida aholi punktlari hajmiga ko'ra hamlet, village, town, city tarzida to'rt pog'onada farqlanadi. O'zbek tilida esa qishloq va shahar qarama-qarshiligi ustunlik qiladi, oraliq pog'ona shaharcha kabi yasama so'z yoki ovul kabi alohida birlik bilan ifodalanadi.

Maydon chegarasini belgilashda unga kirmaydigan birliklar ham aniqlandi. Bu yerda, u yerda, ichkari, tashqari kabi o'rin-payt ravishlari va joy ma'nosidagi olmoshlar makon munosabatini ifodalasa-da, ot so'z turkumiga mansub bo'lmagani uchun tadqiqot obyektiga kiritilmaydi. Toponimlar, urbanonimlar va boshqa onomastik birliklar atoqli ot bo'lgani sababli

faqat qiyosiy dalil sifatida jalb qilinadi. Kundalik nutqqa kirib borgan vodiy, voha, prospekt, maydon kabi so‘zlar maydon tarkibida ko‘rib chiqildi.

Ayrim birliklarning maqomini aniqlash alohida mulohazani talab qildi. Tashkilot, muassasa, idora, byuro, institut, uyushma, birlashma, ittifoq kabi so‘zlar birinchi navbatda tashkilotni, ya’ni ijtimoiy birlikni nomlaydi, lekin «idoraga bordim», «institutda ishlaydi», «Yozuvchilar uyushmasida uchrashdik» kabi qo‘llanishlarda ular shu tashkilot joylashgan bino yoki joy ma’nosida keladi. Bunday so‘zlarda joy ma’nosi metonimik yo‘l bilan yuzaga chiqadi, shu sababli ular maydonning periferiyasiga joylashtirildi. Manzil va adres so‘zlari esa joyning o‘zini emas, uni topish uchun belgilangan ma’lumotni bildiradi. Uy, kvartira, turar joy so‘zlari esa maydonning «turar joy» mikromaydonida bevosita yadro birliklari sifatida qaraladi.Lug‘at materialini yig‘ish davomida maydon chegarasida turgan yana ikki guruh aniqlandi. Birinchisi diniy-mifologik makonni nomlovchi arosat, a’rof, arsh, arshi a’lo kabi otlardan iborat bo‘ladi. Ular real geografik obyektni emas, balki diniy tasavvurdagi makonni bildiradi. Izohli lug‘atda arosat so‘zi diniy tushuncha sifatida, qiyomat kuni odamlar yig‘iladigan maydon ma’nosida izohlanadi. Bu birliklar maydonning lingvokulturologik periferiyasiga kiritildi. Ikkinchi guruhni bino yoki inshootning qismini bildiruvchi ship, toq, ravoq, arka, bo‘lma kabi otlar tashkil etadi. R.Yuig fransuz tilidagi ichki joylashuv otlarini alohida guruh sifatida ko‘rib chiqqani singari, bunday otlar ham mustaqil makon emas, balki makon qismini nomlovchi birliklar sifatida maydonning oraliq qatlamiga joylashtirildi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida o‘rin-joy otlari deganda muayyan joyni, makon bo‘lagini yoki makon sifatida idrok etiladigan obyektni nomlovchi, ma’no tarkibida «joy/makon» arxisemasi mavjud bo‘lgan turdosh otlar tushuniladi. Bu birliklar atoqli otlardan farqli ravishda bir turdagi obyektlar sinfini nomlaydi, leksik ma’noga ega bo‘lib, izohli lug‘atlarda ta’riflanadi va tilning leksik-semantik tizimida paradigmatik munosabatlar orqali bog‘lanib, yaxlit maydon hosil qiladi. Keyingi tahlil davomida ushbu ishchi ta’rifga tayanildi.

O‘rin-joy otlarining tildagi o‘rnini aniqlash uchun avvalo ularni atoqli otlardan ajratib olish zarur bo‘ladi. Onomastikada atoqli ot (onim) va turdosh ot (apellyativ) dixotomiyasi asosiy nazariy masalalardan biri sanaladi. Rus onomastika maktabining yetakchi vakili A.V.Superanskaya atoqli otlarning umumiy nazariyasini ishlab chiqar ekan, onimlarni apellyativlardan nominativ vazifasi, ma’no tuzilishi va qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra farqlagan[3]. N.V.Podolskaya tuzgan onomastik terminologiya lug‘atida apellyativ, onim, toponim, oykonim, gidronim, oronim, urbanonim kabi atamalarning ta’riflari tizimlashtirilgan. V.A.Nikonovning toponimikaga kirish xarakteridagi asari esa joy nomlarini o‘rganishning umumiy tamoyillarini belgilab bergan.

Apellyativ bilan onim o‘rtasidagi asosiy farq ularning nomlash vazifasida ko‘rinadi[7]. Apellyativ bir turdagi obyektlarning umumiy belgisini ifodalaydi, onim esa shu turdagi obyektlardan birini boshqalaridan ajratib ko‘rsatadi. Daryo so‘zi har qanday oqar suvni nomlaydi, Zarafshon esa faqat bitta aniq daryoni bildiradi. Ingliz tilida ham river oti umumiy tushunchani ifodalaydi, Thames esa aniq obyektning nomi sanaladi. Apellyativ izohli lug‘atda ta’riflanadi, sinonim, antonim, giponim kabi paradigmatik munosabatlarga kirishadi. Onim esa bunday munosabatlarni deyarli hosil qilmaydi.

Ammo bu chegarani o‘tib bo‘lmas devor deb tasavvur qilish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Til taraqqiyoti davomida apellyativlar atoqli otga aylanadi yoki, aksincha, atoqli otlar turdosh ot ma’nosini kasb etadi. Birinchi jarayon onimizatsiya (onimlashuv), ikkinchisi esa deonimizatsiya (apellyativlashuv) deb ataladi. O‘rin-joy otlari toponimlarning eng faol manbalaridan biri bo‘lib keladi[4; 5]. O‘zbek toponimiyasidagi Qo‘rg‘ontepa, Yangiqo‘rg‘on, Yangibozor kabi nomlar tarkibida qo‘rg‘on, tepa, bozor so‘zlari yaqqol ko‘rinib turadi. Shu ma’noda o‘rin-joy otlari toponimiyaning «qurilish materiali» vazifasini bajaradi[6]. Teskari jarayonga ham maydon doirasida misol topiladi: o‘zbek tilidagi artezian (artezian quduq) so‘zi fransuz tilidagi artésien sifatiga borib taqaladi, u esa Fransiyaning Artua (Artois) viloyati nomidan yasalgan, ingliz tilidagi artesian so‘zi ham aynan shu manbadan kelib chiqqan. Shunday qilib, bir joy nomi ikki tilga turdosh so‘z sifatida bir xil yo‘l bilan kirib kelgan.

Apellyativ va onim munosabatining yana bir jihati urbanonimlarda ko‘rinadi. Shahar ichidagi obyektlar – ko‘cha, maydon, mahalla, bog‘, bino nomlari onomastikada urbanonimlar deb ataladi. V.F.Kayumova va M.M.Axmedova Toshkent shahri urbanonimlarini «shaharning onomastik maydoni» tushunchasi doirasida o‘rganib, mehmonxona, restoran, kafe va do‘kon nomlari asosan ingliz tilida so‘zlashuvchi chet elliklarga mo‘ljallanganini, ular sayyohlar uchun shahar va mamlakatning ijobiy qiyofasini yaratishga qaratilganini aniqlagan[8]. Shahar makonini nomlashda til tanlovi ijtimoiy omilga bo‘ysunadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy turar joy majmualari va savdo markazlari nomlarida city, town, park, plaza kabi inglizcha o‘rin-joy otlari faol qo‘llanmoqda, ularning bir qismi siti, taun shaklida og‘zaki nutqqa ham kirib bormoqda.

Xulosa. O‘rin-joy otlari yasalish usulidan qat’i nazar, muayyan joyni, makon bo‘lagini yoki makon sifatida idrok etiladigan obyektni nomlovchi, ma’no tarkibida «joy, makon» arxisemasi bo‘lgan turdosh otlar sifatida talqin qilinishi lozim, chunki faqat yasama otlar bilan cheklanish maydonning yadrosini tashkil etuvchi tub so‘zlarni tahlildan chetda qoldiradi.Ikki tilda ham umumiy makon otlari maydon markazini egallaydi va turli etimologik qatlamlardan shakllangan; ammo ular ham ikki tilda bir xil hajmda mos kelmaydi, bu esa qiyosni maydonning eng umumiy birliklaridan boshlash zarurligini ko‘rsatadi.

O‘rin-joy otlari leksik ma’noga egaligi va paradigmatik munosabatlar hosil qilishi bilan atoqli otlardan farqlanadi, ammo toponimiyaning asosiy manbai bo‘lgani uchun onomastik ma’lumotlar ularning tarixiy ma’nolarini tiklashda muhim dalil vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Straižytė D., Ganusauskaitė J. Word Formation Patterns of Place Nouns in English and Lithuanian: A Case Study of a

Novel by M. Katiliškis “Miškais ateina ruduo” and Its Translation into English // Lietuvių kalba. – 2024. – No. 19. – P. 94–113. DOI: 10.15388/LK.2024.19.7

[2] Huyghe R. Les noms généraux d’espace en français. Enquête linguistique sur la notion de lieu. – Bruxelles: De Boeck Duculot, 2009.

[3] Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973.

[4] Begmatov E. Joy nomlari – ma’naviyat ko‘zgusi. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.

[5] Enazarov T. O‘zbekiston toponimlari: lug‘aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo‘llari: filol. fan. dokt. … diss. – Toshkent, 2006.

[6] Qorayev S. Toponimika: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.

[7] Nuritdinova R.S. O‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: filol. fan. nomz. … diss. – Toshkent, 2005.

[8] Kayumova V.F., Axmedova M.M. Toshkent shahar nomlarining xususiyatlari haqida // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2024. – 10-jild, №5. – B. 21–36. DOI: 10.36078/1732774473